

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI VA SIYOSATI**  
**(HINDISTON)**

**FANINING O‘QUV DASTURI**


Bilim sohasi:	200000	– San‘at va gumanitar fanlar
Ta‘lim sohasi:	230000	– Tillar
Mutaxassislik:	70230101	– Lingvistika (sharq tillari bo‘yicha)

**Toshkent -2025**

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori:  X.V. Mirzaxmedova

Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi boshlig'i  N.B. Xodjaeva

ARM boshlig'i

  
M. Yuldasheva

Fan/modul kodi ShMTVS1204	O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	SHARQ MAMLAKATLARIDA TIL VAZIYATI VA SIYOSATI (HINDISTON)	48	72	120
2.	<p><b>I. Fanlarning mazmuni</b></p> <p><i>Fanni o'qitishdan maqsad</i> – Hindistonning murakkab va ko'p tilli ijtimoiy-lingvistik muhiti magistrant-talabalar uchun tilshunoslik sohasida chuqur bilim va ko'nikmalarni egallashni talab etadi. Bu kontekstdagi o'quv jarayonida talabalarni Hindistondagi til holatini tahlil qilishga yo'naltirilgan, ayniqsa tipologik va genealogik tahlilga oid terminologiyani umumlashtirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.</p> <p><i>Fanning vazifasi</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Til vaziyati: Hindistonning ko'p tilli tuzilmasi, rasmiy va mintaqaviy tillarning funksiyasi.</li> <li>- Til siyosati: Konstitutsiyaviy asoslar, shtatlar darajasidagi til siyosati.</li> <li>- Til va siyosat aloqasi: Davlat siyosatining til tanlovi, ta'lim va madaniyatga ta'siri.</li> <li>- Yozuv tizimlari: Devanagari, Tamil, Bengali, Urdu va boshqa yozuvlar; ularning islohoti va standartlashtirilishi.</li> </ul> <p>Shakllantiriladigan ko'nikmalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Til siyosatini tahlil qilish va qiyoslash.</li> <li>- Ilmiy tadqiqotlardan xabardor bo'lish va ularni qo'llay olish.</li> <li>- O'quv dasturlari. darslik va qo'llanmalar yaratish.</li> <li>- Tadqiqot natijalarini pedagogik faoliyatda qo'llash.</li> </ul> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Leiden University (QS 126, THE 77) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://www.universiteitleiden.nl/en/research/aboutourresearch/quality-and-integrity/rankings">https://www.universiteitleiden.nl/en/research/aboutourresearch/quality-and-integrity/rankings</a></p> <p><b>II. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>I-mavzu: Hindiy tili: Hindiston lingvistik landshaftidagi o'rni va ahamiyati</b></p>			

Ushbu mavzu hindiy tilining Hindistondagi lingvistik xaritadaagi mavqeiini umumiy ko'rib chiqadi. Unda hindiy tilining rasmiy, milliy va muloqot tili sifatidagi funksiyalari, shuningdek, uning boshqa hind tillari va ingliz tiliga nisbatan munosabati tahlil qilinadi. Til vaziyati tushunchasiga kirish.

### **2-mavzu: Hindiy tilining stratifikatsiyasi: dialektlar, uslublar va standartlashtirish**

Hindiy tilining ijtimoiy va funksional tabaqalanishini o'rganadi. Kxari boli, Braj, Avadxi kabi asosiy dialektlar, og'zaki va yozma standartlar, shuningdek, tilning rasmiy, adabiy va kundalik muloqotdagi uslubiy farqlari tahlil qilinadi.

### **3-mavzu: Globalizatsiya va hindiy tili: Raqamli asrda yangi sharoitlar**

Globalizatsiya va internetning hindiy tiliga ta'sirini o'rganadi. Raqamli muhitda hindiy tilining ishlatilishi, ingliz tilining ta'siri, yangi so'zlar yaratish (neologizmlar) va onlayn kontent yaratishda hindiy tilining o'rni ko'rib chiqiladi.

### **4-mavzu: Hindiy tili va identitet: milliy va mintaqaviy o'zlikni qurish**

Bu mavzu hindiy tilining Hindiston milliy identitetini shakllantirishdagi markaziy rolini, shu bilan birga uni "hindular tili" deb talqin qilish natijasida yuzaga keladigan mintaqaviy va diniy (ayniqsa, musulmon jamoalarda) qarama-qarshiliklarni tahlil qiladi.

### **5-mavzu: Ta'lim tizimida hindiy tili: imkoniyatlar va to'siqlar**

Mavzu Hindiston maktablarida va oliy o'quv yurtlarida hindiy tilining o'rni va vazifasiga qaratilgan. "Ona tili" sifatida, ikkinchi til sifatida va fan sifatida o'qitish metodlari, shuningdek, ta'lim olish uchun til to'siqlari masalalari yoritiladi.

### **6-mavzu: Hindiy matbuoti va OMM: an'anaviy va yangi media**

Ushbu mavzu hindiy tilidagi matbuotning tarixiy evolyutsiyasidan boshlab, zamonaviy teleko'rsatuvlar, onlayn gazetalar va ijtimoiy tarmoqlardagi roligacha bo'lgan yo'lni tahlil qiladi. Tilning turli media formatlariga moslashuvi o'rganiladi.

### **7-mavzu: Hindiy va urdu: bir tilning ikkita adabiy standarti masalasi**

Mavzu hindiy va urdu tillarining lingvistik birligi va ijtimoiy-siyosiy, diniy va yozuv tizimidagi farqlarini chuqur tahlil qiladi. Bu "ikkilik"ning jamiyatdagi nutqqa, adabiyotga va ommaviy axborot vositalariga qanday ta'sir qilishi ko'rib chiqiladi.

### **8-mavzu: Hindiy tilining iqtisodiy qadri: biznes va ishlar dunyosida**

Bu mavzu hindiy tilining ishbilarmonlik, marketing va xizmat ko'rsatish sohalaridagi ahamiyatini o'rganadi. Tilning ish topish, martaba qilish va bozorga kirish uchun "lingvistik kapital" sifatidagi roliga e'tibor qaratiladi.

### **9-mavzu: Hindiy tili siyosati: davlat, taraqqiyot va fuqarolik**

Mavzu Hindiston hukumatining hindiy tilini rivojlantirish va targ'ib qilish bo'yicha siyosatini tahlil qiladi. Markaziy va shtatlar darajasidagi qonunlar, tilning davlat apparatida qo'llanilishi va fuqarolarning davlat bilan

munosabatlaridagi roli muhokama qilinadi.

### **10-mavzu: Hindiy adabiyoti: tilning madaniy ifodasi**

Ushbu mavzu zamonaviy hindiy adabiyotining rivojlanishi va uning tilning o'zgarishiga qanday hissa qo'shayotganini o'rganadi. Yangi adabiy uslublar, janrlar va mualliflarning tilga munosabati tahlil qilinadi.

### **11-mavzu: Shahar muhitida hindiy tili: urbanizatsiya va lingvistik o'zgarishlar**

Mavzu shaharlashuvning hindiy tiliga ta'sirini tahlil qiladi. Katta shaharlarda hindiyning boshqa tillar (masalan, ingliz yoki mintaqaviy tillar) bilan aralashib, yangi shevalar (Hinglish kabi) va nutq usullarini yuzaga keltirish jarayoni o'rganiladi.

### **12-mavzu: Hindiy tilining kelajagi: trendlar, tahdidlar va imkoniyatlar**

Hindiy tilining kelajakdagi yo'nalishlarini bashorat qilishga bag'ishlanadi. Raqamlashuv, global migratsiya, mintaqaviy tillarning qarshiligi va yangi avlodning tilga munosabati kabi omillar tahlil qilinadi va tilning rivojlanish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Hindiston) fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Til siyosati va identitet: konstitutsiyaviy kelishuv va zamonaviy bahslar.
2. Globalizatsiya va lingvistik imperializm: ingliz tilining barqaror hukmronligi.
3. Ko'p tillilik va ta'lim: "ona tili" asosidagi ta'limning ijtimoiy barqarorlikdagi o'rni.
4. Hindiy-urdu polarizatsiyasi: til, din va siyosatning davom etayotgan zaro almashinuvi.
5. Raqamli tafovut: internet va texnologiyalarda mahalliy tillarning vokalligi.
6. Shaharlashuv va til o'zgarishi: shahar atrofidagi hinglish va lingua francalarning o'sishi.
7. Til qayta tiklash va himoya qilish: xavf ostidagi tillarni saqlash harakatlari.
8. Til va iqtisodiy imkoniyat: ish o'rinlari va ijtimoiy harakchanlik uchun lingvistik kapital.
9. Lingvistik millatchilik va markaziy osiyo: hind tillarining xalqaro maydondagi o'rni.
10. Til rejalashtirish va hukumat: markaz va shtatlar o'rtasidagi doimiy kuch kurashi.
11. Til va gender: nutqda va matnda gender stereotiplarning ifodasi.
12. Til va migratsiya: ko'chish va demografik o'zgarishlarning lingvistik ta'siri.

### **III. Mustaqil ta'lim\***

#### **III.1. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

	<p>“Sharq mamlakatlarida til vaziyati va siyosati (Hindiston)” fanidan mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Diaxronik nuqtai nazardan hindistondagi til vaziyati;</li> <li>2. Hindistondagi til vaziyatining dinamikasi;</li> <li>3. Hindiy tili milliy til tizimi sifatida;</li> <li>4. Hindistondagi til vaziyatining tipologiyasi;</li> <li>5. Hindistonda til ishlatilishida davlatning til siyosati;</li> <li>6. Hindiston til vaziyatining yaratilishida ob’ektiv va sub’ektiv faktorlar;</li> <li>7. Hindistondagi hindiy va hindiy tillarining lingvistik va ekstralingvistik muammolari;</li> <li>8. Hindistondagi ingliz tilining o’rni;</li> <li>9. Hindistonning lingvoareallari;</li> <li>10. Hindistonda ikkitillik va ko’ptillik muammosining xususiyatlari;</li> </ol> <p>Mustaqil o’zlashtiriladigan mavzular bo’yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p><i>* Izoh: Mustaqil ta’lim mavzulari fan doirasida o’zgarishi mumkin.</i></p>
3.	<p><i>Fanni o’zlashtirish natijasida magistrant-talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o’qitilayotgan sharq tilida yaratilgan maxsus adabiyot ustida ishlash, matnning fonetik, fonetik tizimning davriylik masalasi, leksik-semantik, grammatik, uslubiy jihatlar va so’z yasalishi masalalari; matnning sintaktik xususiyatlari va qoidalari haqida <b>tasavvurga ega bo’lishi</b>;</li> <li>- matnda qo’llanilgan lug’at tarkibi, lug’at tarkibining genetik asoslari; so’zlarning ma’no xususiyatlari; leksik birliklarning morfologik tadqiqi;</li> <li>- matnda qo’llanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslubi masalasi, ijodkor uslubining o’ziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi ko’rinishi; matn talabi bilan til uslublarining tanlanishini tushuna olish <b>bilishi va ulardan foydalana olishi</b>;</li> <li>- matn tilining fonetik asoslari, fonetik tizimning davriylik masalasi; matnda qo’llanilgan lug’at tarkibi, lug’at tarkibining genetik asoslari; so’zlarning ma’no xususiyatlari; leksik birliklarning morfologik tadqiqi; so’z yasalishi masalalari yuzasidan <b>ko’nikmalariga ega bo’lishi</b>;</li> <li>• matnning sintaktik xususiyatlari; matnda qo’llanilgan iboralar, maqol va boshqalarga xos sintaktik qurilmalar; ijodkor uslubi masalasi, ijodkor uslubining o’ziga xosligi; adabiy til uslublari va ularning matndagi ko’rinishi; matn talabi bilan til uslublarining tanlanishini tushuna olish <b>malakasiga ega bo’lishi kerak</b>.</li> </ul>
4.	<p><b>V. TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma’ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo’lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>

5.	<p><b>VI. Kreditlarni olish uchun talablar:</b>  Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Shomatov O.N. Janubiy Osiyo tillariga kirish. -T.2003-2004. 1-3 qismlar.</li> <li>2. Mirza Xalil Ahmad Beg. Hindiy zaban ki tarix. Edukeshnal Buk Haus, Aligarh.2000.</li> <li>3. P.Mishra Language and making of modern India. Nationalism and the Vernacular in Colonial Odisha, 1803-1956, India, 2020. p. 262</li> <li>4. Dr. M.Delican The language policy of India, India, 2020. p.10</li> <li>5. P. Sailaja Indian English. Dialects of English. Edinburg, 2009. p.185</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. – Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Scopusdan maqolalar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>7. <i>Dinding Haerudin</i>. Examining language attitudes and use: A survey of Indonesian university students' loyalty to their ethnic languages – Indonesian Journal of Applied Linguistics  Vol 14, No 1 (2024) <a href="https://doi.org/10.17509/ijal.v14i1.70364">https://doi.org/10.17509/ijal.v14i1.70364</a></li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>8. www.gov.uz</li> <li>9. www.lex.uz</li> <li>10. www.ziyo.net</li> <li>11. <a href="https://ibratfarzandlari.uz">https://ibratfarzandlari.uz</a></li> <li>12. www.repositori.kemdikbud.go.id</li> <li>13. www.bipa.kemdikbud.go.id</li> </ol>
7.	<p>Fanning o'quv dasturi, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025 yil "25" ijundagi 21-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025 yil "28" ijundagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.</p>

Ulefs

8.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b> S.S. Nurmatov – TDSHU, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi filologiya fanlari doktori, dotsent
9.	<b>Taqrizchilar:</b> Muhibova U.U. – TDSHU, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi professori Abduganiyeva N.A. – TDSHU, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi dotsenti v.b., PhD